



BOSHNI TASVIRLASH DETALLARINI CHIZISH USULLARI VA CHIZISHNI O'RGANISH

Nishanov Ismoil Ibrohimovich

Namangan muhandislik texnologiya instituti

Dizayn kafedrasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7161712>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 04th October 2022

Online: 08th October 2022

KEY WORDS

Homaki tasvir, trapetsiyasimon, shakl, soya bilan ishlash, yarim soya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshni tasvirlash detallarini chizish usullari va chizishni o'rganish bo'yicha ma'lumot keltirilgan.

Bosh shaklining bo'laklarini ishlashda yuzning bosh qismlari – burun, ko'z, quloq, lablarni tasvirlashning asosiy qoidalari haqidagi bilimlarni puxta bilishni talab etadi.

Burun shaklini chizish. Bosh shakli bo'laklarini ishlashni burun tasviridan boshlanadi, biz ham ushbu vazifani burun shakli tahlilidan boshlaymiz. Bosh shakli bo'laklari tasvirini qurish uslubini ochib borib, yana go'yo ma'lum haqiqatga qaytgandek bo'lamiz. Lekin turli oliy badiiy o'quv yurtlaridagi ko'p yillik pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalar ular haqida unutib qo'yadilar va lozim darajadagi muvaffaqiyatga erishmay turib rasmni juda mantiqsiz va betartib tarzda olib boradilar. Yuqorida ta'kidlaganidek, burunning katta shakli to'rtga yuzadan iborat bo'ladi – oldingi, ikki yon va pastki yuzalar.

Erkak va ayollarning burni har xil bo'lishligiga qaramay burun shakli strukturasi bir xil bo'ladi. Biz uni o'z sxemamizda ko'rib chiqamiz. Burun

prizmasining old yuzasi qosh usti yoylari chizig'idan burun bugrigacha qansharning trapetsiyasimon shaklini tashkil qiladi. Shundan keyin qanshardan burun bugrisining o'rtasiga qadar yana bitta uzaytirilgan trapetsiyani tashkil etadi undan bugri oxirigacha –uchinchi lekin ag'darilgan ko'rinishda; va nihoyat oxirgi trapetsiya–bodom.

Induividual xususiyatlarga ko'ra burun shakllari qurilish sxemasi ko'rinishi o'zgaradi – puchuq, qirg'iy burun, to'g'ri burun. Lekin ularning qurilish qonuniyati o'zgarmay qolaveradi. Masalan, biz qirg'iy burun kishini chizayapmiz. Burun shakli strukturasi tahlil qilib, biz ko'rsatib o'tgan sxema ancha cho'zilganligini qayd etamiz; bunday kishilarning qansharlari ancha tor bo'lib, prizma-burunning yon yuzasi qanshardan ko'z yoshi qorachig'igacha chuqur kirib ketadi; burun bugri eng do'ng qismi odatdagidek bo'lib shakliga ko'ra cho'ziq, uchi pastga etilgan, bodom chiziq'lari ko'rinmas bo'ladi, ular yagona shaklga qo'shib ketgandek bo'ladi.


Puchuq burunli kishining qanshari keng, burni bukri botiqroq va kichik bo'ladi, bodomlari keng va burun uchi yaxshi ko'rinib turadi, butun sxema esa ancha siqiq. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki shakl xarakteri har xil bo'lishiga qaramay burun sxemasi, tarkibi o'zgaras, ya'ni to'rt qismdan iborat bo'lib qolaveradi.

To'g'ri burunli kishilarda peshona suyagidan burun bugrigacha o'tishi bir tekisda bo'ladi. qirg'ay burun kishilarda peshona suyagi biroz oldinga turtib chiqqan, burun suyaklari esa ancha oldinga chiqib, keskin pastga qaragan bo'ladi. Burun kemirchagi va mushaklarning joylanish qonuniyati ham shunday. Buni tirik bosh rasmini chiziyotganda hisobga olish kerak. Mazkur holatda biz burun shakli va uning plastik xarakteristikasi shaklini qurishning umumiy qonuniyatlarini o'zlashtirib olishimiz kerak.

Burunning old yuzasi aniqlik kirita borib tasvirini bir vaqtning o'zida o'ng va chap tomonlarda yuriting. Masalan, o'ng tomondan qansharni belgilab olib, darhol chap tomonini ham belgilang; burun bugrisini o'ng tomondan belgilab, shu yerning o'zida chap tomonni ham; bodomlar shakli xarakterini aniqlay turib, o'ng va chap qismini bir vaqtning o'zida tasvirlay boshlaymiz. Agar rasm chizuvchida ko'z bilan chamalash malakasi rivojlanmagan bo'lsa, u holda dastlab qurishning yordamchi chiziqlaridan foydalanishi kerak. Masalan, burun prizmasini belgilab olib ko'z ichi qopchig'i va burun qanotlari uchini to'g'ri chizishlar bilan tutashtirish; burunning yuqori chetini belgilab darhol uni boshqa tomondan ham to'g'ri chizish bilan belgilaqi va bu to'g'ri chiziqni burun asosi chizig'igacha davom ettirish lozim. Tasvir qurish uslubiy bosqichida tushlash qonunlarini to'g'ri hal

etishga alohida e'tibor qaratilgan. Rasmni prizma shaklidagi burunni yengilgina tus berib tasvirlashdan boshlaymiz. Burunning oldingi (yoritilgan) va pastki (soyadagi yuzasini yon yuzalardan) (yarim soyadagi) ajratayotganda tus nisbatlari rasm chizilishi tugagunga qadar saqlanib qolishiga e'tibor bering. Ko'pchilik rasm chizuvchilarda burun va yarim soyada joylashgan burun teshiklarining yon yuzalarida xuddi burunning oldingi (yoritilgan) burun uchidagi yorug'lik kuchi qanday bo'lsa shunday kuchga ega bo'lib qoladi. Burun uchida ba'zan shu'la (refleks) paydo bo'ladi va burunning eng kuchli yorug'likdan sustroq bo'ladi.

Shundan keyin yorug'likda ham, soyada ham shaklning plastik xarakteristikasini ochishga kirishish kerak. Reflekslarni yon tomon yuzada joylashgan tusni kuchaytirish yordamida tushlang.




1-rasm. Qalam tasvir. 2018

Ushbu rasmni bajarayotib nafaqat o'quv materialini o'zlashtirib olishga, balki ifodali rasm chiqarishga, ganch materialini qog'ozda uni aks ettirishga harakat qiling bunga misol keltirilgan.

Tasvirning prinsip va uslublarini yaxshi o'zlashtirib olish uchun boshqa haykallardan turli holatlarda bir qator rasmlarni bajarish kerak, bunda albatta


burun shakli qurilishining alohida xarakterli xususiyatlarini ochishga harakat qilingan.

Quloq. Odamning qulog'i, garchi harturli kishilarda uning shakli turlicha bo'lsa-da, doimo bitta strukturaga egadir. Har qanday kishida biz tashqi gajmani ko'rishimiz mumkin, 1. ichki gajama quloq suprasining o'rtasida bo'ladi, 2. pastki qismi esa yumshoq joy bilan tugaydi, 3. Quloq suprasining ichki qismini qarshi gajama qoplagan, 4. quloq suprasining tashqi tomonidan esa bukri qism qoplagan, 5. Quloq tasvirini qurishda quloq suprasining bu hamma qismlari rassom nazarida bo'lishi kerak. Klassik qo'llanmalarda quloq rasmini chizish qoidalariga jiddiy ahamiyat berilgan. Jadvallarda mualliflar quloq shaklining qonuniyatlari va tasvir qurish uslubiyotini ko'rgazmali tarzda ko'rsatishga harakat qilganlar.



2-rasm. Quloq rasmini chizish bo'yicha dastlabki tasvir.

Dovud qulog'ining ganch namunasi rasm chizuvchi uchun yaxshi qo'llanma hisoblanadi, unda shakl strukturasi va plastik xarakteristikasi yorqin ifoda etilgan. Shuning uchun ham ana shu namunani o'rganish va undan rasm chizishni boshlash kerak.



3-rasm. David qulog'i. Qalam tasvir. 2018

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muxit holati muxim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan obektga yorug'lik manbai atrofdagi boshqa buyumlarni ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi, tusi bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'ladi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat qiladi.

References:

1. Boymetov B. M.S.Tolipov. Plastik anatomiya. Ilm ziyo nashriyoti. 2005 y.
2. Boymetov B. Qalamtasvir. T., Musiqa, 2006 y
3. Boymetov B. Qalamtasvir. T., Ilm ziyo nashriyoti, 2007 y.
4. A.Egamov, B.Boymetov, X.Aminov. Chizmatasvir. Sharq nashriyoti, 2007 y
5. N. Isaxojayeva Rangtasvir. Kompozitsiya (Natyurmort) Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi 2014 y.



6. B.Boymetov Qalamtasvir "Ilm Ziyο" 2013 y.
7. N.A. Isahojayeva, A.F. Karimov, R.r. Axmedov. "Chizmatasvir va rangtasvir" TTESI bosmaxonasi.
8. S. Abdurasilov, N.Tolipov. Rangtasvir-T.: "Bilim nashryoti, 2005.-160 b.
9. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya.-T.: Ilm Ziyο, 2005.-198b.
10. S.Bulatov. Rangshunoslik. - T.: O'zbekiston, 2009.-160 b.